

“VATAN MUQADDAS DIYOR”**Usmanova Dinora G'ulomjon qizi***21-maktab o'quvchisi*

Vatan bu bizning kindik qonimiz to'kilgan makon, ota-bobolarimiz tug'ilib o'sgan diyor. Dasturxon atrofida oilaviy ovqatlanib, suhbatlashish va bir burda non ham shu jumlasidan. Har bir tirik jon borki, vatan tuyg'usini his qiladi. Vatan deganda barchamizning ko'z oldimizga ajdodlarimiz va tariximiz kelishi tabiiy hol. Sababi, buyuk bobokalonlarimiz vatan va uning kelajagi uchun dushmanlar bilan jang qilganlari, shoirlarning vatanga bo'lgan muhabbatini aks ettirib, uning tuyg'usini tuyib qalam tebratgani bunga yaqqol misol bo'ladi. Biz ajdodlarimizning davomchisi hisoblanamiz, ular qilgan buyuk ishlarning davom ettirilishi bizning zimmamizda. Jumladan, Alisher Navoiy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk shaxslar vatanni madh etib, uni himoya qilishga va rivojlantirishga butun umrini bag'ishlaganlar. Endi shunday savol tug'iladi, xo'sh, biz bu insonlar biz uchun umrini va shirin jonini baxshida etganligiga loyiq farzand bo'ldikmi? Vatan faqatgina tuproq yoki bir burda non emas, u bizning urf-odatlarimiz, qadriyatlarimiz, e'tiqotlarimiz va tariximiz demakdir. “Vatanni sevish imondandir”, deb ajdodlarimiz bejiz aytishmagan. Men vatanimni shular bilangina ko'raman va his qilaman. Vatanga bo'lgan muhabbat har bir insonning yuragida tug'ilgan va shu urib turgan yuragida abadiy yashaydi. Ammo bu muhabbatni faqat so'z bilan emas, balki amaliy harakat bilan namoyon qilish muhimdir. Har birimiz vatanni sevib, uni ardoqlab, yanada obod va tinch o'lka qilishga o'z hissamizni qo'shishimiz kerak. Zero, vatan uchun jon bergan ajdodlarimizning qilgan mehnatlarini oyoq osti qilmaylik. Vatan singari ular ham xotiramizda mangu yashaydi.